

---

**“HUDUDGAZTA'MINOT” AJ OB'YEKTLARIDA GAZ  
QUVURLARINI BRAKKA CHIQRISH BO'YICHA YO'RIQNOMA**

---

**Toshkent - 2022**

---

---

## So'zboshi

**1 “Hududgaz Konsalting” MChJ tomonidan ISHLAB  
CHIQILGAN VA KIRITILGAN**

**2 “Hududgazta'minot” AJning 2022 yil 28 vefraldagi  
49-sonli buyrug'i bilan TASDIQLANGAN VA AMALGA JORIY  
QILINGAN**

**3 BIRINCHI MARTA TATBIQ ETILDI**

**4 2022 yil 29 martdagi 02/19-795-sonli xati bilan  
O'zbekiston Respublikasi sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi  
bilan kelishilgan**

## MUNDARIJA

1	Qo'llash sohasi.....	1
2	Normativ havolalar.....	1
3	Atamalar va ta'riflar .....	2
4	Belgilar va qisqartmalar.....	6
5	Umumiy qoidalar.....	6
6	Quvurlarning texnik holatini baholash.....	9
	6.1 Tekshiruv o'tkazish tartibi .....	9
	6.2 Quvurlar va QBDni nazorat qilish usullari va hajmlari.....	19
	6.3 Quvurlar va QBD nuqsonlarining turlari.....	21
	6.4 Shakli o'zgargan (deformatsiya) holatini baholash.....	23
	6.5 Quvurlar metallining holatini baholash.....	23
	6.6 Korroziyadan yemirilganlikni baholash.....	25
	6.7 Baholash natijalarini rasmiylashtirish.....	29
7	Quvurlarni brakka chiqarish.....	31
	7.1 Brakka chiqarish tartibi.....	31
	7.2 Brakka chiqarish normalari.....	33
	7.3 Quvurlarni korroziyaga uchraganlik holati bo'yicha brakka chiqarish.....	37
	7.4 Ezilgan va (yoki) gofrli quvurlarni brakka chiqarish.....	43
	7.5 Gaz quvurining texnik holatini umumiy baholash.....	46
8	Ishlatilgan quvurlardan foydalangan holda gaz quvurlarini ta'mirlash.....	46
	A ilova (majburiy) Ta'mirlanishi lozim bo'lgan nuqsonlar qaydnomasining shakli.....	55
	B ilova (ma'lumot uchun) Quvurlar ahvolini baholash.....	58
	C ilova (majburiy) Gaz quvurining texnik holatini tekshirish dalolatnomasining shakli.....	61
	Bibliografiya.....	66



---

---

## **“HUDUDGAZTA'MINOT” AJ OB'YEKTLARIDA GAZ QUVURLARINI BRAKKA CHIQRISH BO'YICHA YO'RIQNOMA**

---

Kiritilish sanasi: 2022 yil 28 vefral

### **1 Qo'llash sohasi**

1.1 Ushbu hujjat gaz tarqatish tarmoqlari orqali ortiqcha gaz bosimi 1,2 MPa dan yuqori bo'lmagan tabiiy gaz uzatuvchi va ortiqcha bosimi 1,6 MPa dan yuqori bo'lmagan suyultirilgan uglevodorod gazini (SUG) GTS va GTPlarga uzatuvchi quvurlarni brakka chiqarish tartibini belgilaydi.

1.2 Mazkur hujjat “Hududgazta'minot” AJning (keyingi matnda – tashkilot) barcha bo'linmalarida qo'llanilishi uchun mo'ljallangan.

### **2 Normativ havolalar**

Ushbu hujjatda quyidagi normativ hujjatlar yuzasidan berilgan havolalar qo'llanilgan:

ГОСТ 24297-2013 Верификация закупленной продукции. Организация проведения и методы контроля

ГОСТ 31448-2012 Трубы стальные с защитными наружными покрытиями для магистральных газонефтепроводов. Технические условия

O'z DSt 20.202:2001 Mahsulot sinash tizimi. Putur yetkazmaydigan nazorat. Putur etkazmaydigan laboratoriyalariga qo'yiladigan talablar

KMK 3.05.02-96 Gaz ta'minoti. Ishlarni tashkil etish, ishlab chiqarish va qabul qilish

KMK 2.05.06-97 Magistral quvuro'tkazgichlar

Izoh - Ushbu hujjatdan foydalanilganda O'zbekiston hududida umumiy foydalanishda bo'lgan axborot tizimida - O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining ("O'zstandart" agentligi) Internet tarmog'ida yoki joriy yilning 1 yanvar holatiga ko'ra nashr qilinadigan har yili chop etiladigan standartlarning informatsion ko'rsatkichi (klassifikatorlar) bo'yicha normativ hujjatlar havolalari amal qilishini tekshirish maqsadga muvofiqdir. Agar havola qiluvchi hujjat almashtirilgan (o'zgartirilgan) bo'lsa, u holda ushbu hujjatdan foydalanishda almashtirilgan (o'zgartirilgan) hujjatga amal qilish lozim. Agar havola qiluvchi hujjat almashtirilmasdan bekor qilingan bo'lsa, unga havola berilgan qoida ushbu havolaga ta'sir qilmaydigan qismda qo'llaniladi.

### **3 Atamalar va ta'riflar**

Ushbu hujjatda quyidagi atamalar va ularga tegishli ta'riflar qo'llanilgan:

**3.1 ezilgan (pachaq) joy:** Quvurning tashqi yuzasiga jamlangan yoki taqsimlangan ko'ndalang yuklama ta'sirida hosil bo'ladigan mahalliy sirt shaklining ravon o'zgarishi shaklida quvur kesimi shaklining buzilishi.

Izoh - Ko'ndalang yuklama ta'siri, odatda, quvurning o'zak sifatida egilishi bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarda hosil bo'ladigan ezilish (pachaqlanish) o'lchamlari bir-biridan birozgina farq qiladi.

**3.2 quvur yoki QBDni kesib (qirqib) olish:** Quvur yoki QBDni ta'mirlash yoki almashtirish uchun amaldagi quvuro'tkazgichdan chiqarib olish taomili.

**3.3 gofr:** Quvuro'tkazgich egilayotganda siqilgan zonada ortiqcha plastik deformatsiyalar rivojlanayotganda quvur devorining mahalliy turg'unligini yo'qolishi natijasida quvur kesimi shaklining buzilishi.

Izoh - Gofr aylana yo'nalishida cho'zilgan va quvurning o'qi bo'ylab kichik uzunlikka ega. Gofr asosiy to'lqinga qo'shimcha ravishda past balandlikdagi qo'shimcha (ikkilamchi) to'lqinlarga ega bo'lishi mumkin.

**3.4 grat:** biror ishlov berish jarayonidan keyin mahsulot chekkalarida qoladigan ortiqcha metall. Metallni payvandlash natijasida oqim izi shaklida qotib qoladigan erigan material ko'rinishida grat hosil bo'ladi.

**3.5 nuqsonli g'altak:** Uzluksiz bo'ylama proyeksiyaga ega bo'lgan quvurning bir yoki bir necha nuqsonli qismi.

**3.6 o'zaro ta'sir qiluvchi nuqsonlar:** Ikki yoki undan ortiq nuqsonlar bo'lib, ularning majmui uchun quvur yorilishining hisobiy bosimi har bir nuqson uchun quvur yorilishining hisobiy bosimidan past bo'ladi.

**3.7 nuqsonli maydon:** Quvurning bir yoki biri-biriga yaqin joylashgan bir necha nuqsonlari mavjud bo'lgan qismi.

**3.8 g'ajilgan joy:** o'tkir tishli qirralari va tubining kichik egriligi mavjud bo'lgan tiralish turi.

**3.9 chuqurcha (uringan joy):** Quvur yuzasining quvur devori yuzasiga tegmay harakatlanadigan va quvur jismining qoldiq mahalliy egilishi sezilmaydigan o'tkir qirralarga ega bo'lgan qattiq jism bilan o'zaro dinamik ta'siri natijasida paydo bo'ladigan shikastlanish.

**3.10 brakka chiqarilgan g'altak:** Quvuro'tkazgichlarda ishlatish uchun yaroqsiz sifatida e'tirof etilgan quvurning nuqsonli qismi.

**3.11 g'altak:** Quvurning silindrik qismi.

**3.12 quvurlar va QBDning toifalari:** Quvurlar va QBDni ishlatish imkoniyatlari bo'yicha tasniflangan guruh hamda ularni ishlatishga tayyorlash tartibi.

**3.13 nazorat ostida silliqdash:** Quvur yoki QBDni ta'mirlash usuli bo'lib, silliqdash jarayonida ularning qoldiq chuqurligini bosqichma-bosqich nazorat qilish, shuningdek ta'mirlash natijalarini nazorat qilish, shu jumladan nuqsonlar to'liq bartaraf etilganligini tasdiqlash va hosil bo'lgan chuqurchalar o'lchamlarini aniqlashdan iborat.

**3.14 putur yetkazmaydigan nazorat:** Quvurlar va QBDni ishlatish va foydalanish uchun yaroqliligini buzmaydigan nazorat.

**3.15 quvur, QBD yoki g'altakni brakka chiqarish:** Quvur, QBD yoki g'altak quvuro'tkazgichlarda ishlatish uchun yaroqli ekanligini aniqlash taomili.

**3.16 silliqlangan maydon:** Quvurning bir yoki biri-biriga yaqin joylashgan bir necha nuqsonlarini nazorat ostidagi silliqlash yo'li bilan bartaraf etishda paydo bo'lgan bir yoki bir necha chuqurchalari mavjud bo'lgan qismi.

**3.17 quvurlar va quvuro'tkazgichni birlashtiruvchi detallarning (QBD) sifatini baholash:** Quvurlar va quvuro'tkazgichning birlashtiruvchi detallari КМК (СНП) va ularni guruhlariga bo'lish talablariga muvofiqligini aniqlash taomili.

**3.18 yuzadagi nuqsonlar:** Quvur yuzasida joylashgan va quvur devori kesimining yoki bo'ylama payvand choki kesimining maydoni kamayishiga olib keladigan nuqsonlar (korroziya, stress-korroziya, metallurgik nuqson va sh.k.).

**3.19 yaroqli g'altak:** Quvuro'tkazgichlarda ishlatish uchun yaroqli sifatida e'tirof etilgan quvurning qismi.

Izoh - Yaroqli g'altak, shu jumladan, ta'mirlashni talab qiladigan nuqsonli g'altaklarga ega bo'lishi mumkin.

**3.20 prognoz qilinadigan xavfsiz ishlatish muddati:** Hisobiy yemiruvchi bosim darajasi belgilangan bosim darajasidan yuqori bo'lib turadigan davr.

**3.21 hisobiy yemiruvchi bosim:** Nuqsonli quvur qismi-ning yemirilishi prognoz qilingan ichki bosimning hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadigan qiymati.

**3.22 stress-korroziya nuqsoni:** Alohida yoriq yoki bo'ylama yo'nalish bo'yicha uzluksiz proyeksiyaga ega bo'lgan stress-korroziya yoriqlari tizimi.

Izoh - keyingi matnda "nuqson" atamasi tilga olinganda stress-korroziya nuqsoni nazarda tutiladi.

**3.23 qirilgan (tirnalgan) joy:** Quvur sirtining u bo'ylab harakatlanayotgan o'tkir qirrali qattiq jism bilan o'zaro dinamik ta'siri natijasida yuzaga kelgan shikastlanish.

**3.24 shurf:** Bu poydevor va (yoki) tuproqli asosni tekshirish, shuningdek geologik qidiruvlar davomida tuproq namunalarini olish uchun oddiy chuqurdir.

## **4 Belgilar va qisqartmalar**

GTS - Gaz to'ldirish stansiyasi

GTP - Gaz to'ldirish punkti

QBD - Quvuro'tkazgichni birlashtiruvchi detallar

NH - Normativ hujjatlar

ROT - Rejali-ogohlantiruvchi ta'mirlash

## **5 Umumiy qoidalar**

5.1 Tekshirilayotgan gaz ta'minoti ob'yektlarida alohida quvurlar va QBD holatini baholash, ularni kelgusida ishlatish imkoniyati, ta'mirlash yoki brakka chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish quvuro'tkazgich qismining texnik holatini o'rganish materiallari asosida amalga oshiriladi.

5.2 Tekshiruv quvuro'tkazgichning himoya qoplamasidan tozalangan qismida amalga oshirilishi lozim. Vizual tekshiruv gaz quvurining yuzasidan eski himoya qoplamasi qoldiqlarini olib tashlangan yuzasi puxta tozalangan va u yotoqlarga yotqizilganidan keyin amalga oshiriladi.

5.3 Tozalangan va yotoqlarga yotqizilgan quvuro'tkazgichni tekshirishdan oldin uning har bir qismi (плет) raqamlangan, piketlarga bog'langan va ishchi chizmalarda belgilangan bo'lishi lozim.

5.4 Tekshiruvni O'z DSt 20.202 talablariga muvofiq o'rnatilgan qoidalar bo'yicha akkreditatsiyadan o'tkazilgan mustaqil putur yetkazmaydigan nazorat laboratoriyasi mavjud va O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining maxsus ruxsatnomasiga ega bo'lgan tashkilot bajarishi kerak.

5.5 Zamonaviy asboblarda yordamida nazorat qilish usullarini qo'llagan holda quvurlar devorlarining shikastlanish xususiyatlarini aniqlash uchun gaz quvuri butun uzunligi va perimetri bo'ylab tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

5.6 Quvurlar va QBDlarni tekshirayotganda barcha aniqlangan nuqsonlarning geometrik parametrlari aniqlanishi kerak. Stress-korroziya nuqsonlari chuqurligi silliqlash va asboblarda yordamida tekshirish yo'li bilan aniqlanishi yoki tasdiqlanishi lozim. Aniqlangan nuqsonlarning geometrik

parametrlari noaniq bo'lgan nuqsonli quvurlar va QBDlar sifatini baholashga yo'l qo'yilmaydi.

5.7 Ko'cha quvuro'tkazgichi almashtirilayotganda ushbu ko'chalar qizil chiziqlari doiralarida joylashgan quvuro'tkazgichdan ketgan barcha tarmoqlar qaytadan yotqizilishi lozim.

Ko'chalarning qizil chiziqlari tashqarisida joylashgan qaytadan yotqizilayotgan ko'cha quvuro'tkazgichining kirish tarmoqlari, ularning ushbu Yo'riqnoma talablariga muvofiq aniqlanadigan texnik holatiga qarab, ta'mirlash yoki almashtirishga tayinlanadi.

5.8 Kapital ta'mirlash yoki almashtirish zaruratini aniqlash uchun tekshiruv o'tkazish ketma-ketligi "Hududgazta'minot" AJning tuman (shahar) gaz ta'minoti filiali tomonidan gaz quvurining texnik holatiga qarab belgilanadi.

Birinchi shunday tekshiruv ushbu gaz quvuri ishga tushirilgandan keyin uzog'i bilan 15 yil o'tgandan so'ng amalga oshirilishi lozim.

Tekshiruvda texnik holati qoniqarli deb e'tirof etilgan gaz quvurlari uzog'i bilan 5 yildan keyin takroran tekshiruvdan o'tkazilishi kerak.

5.9 Foydalanish muddati tugagan barcha gaz quvurlari, ularni kelgusida ishlatish mumkinligi yoki almashtirish lozimligini aniqlash maqsadida, texnik holati majburiy tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

## **6 Quvurlarning texnik holatini baholash**

### **6.1 Tekshiruv o'tkazish tartibi**

6.1.1 Quvurlarni tekshirish ishlari taqdim etiladigan loyihalash, qurilish (ijro etish) va ishlatish hujjatlariga, quvurning ichki defektoskopiya ma'lumotlariga (agar mavjud bo'lsa) va gaz quvurining nuqsonli qismini tashqi tekshirish natijalariga asoslanadi.

6.1.2 Chuqurligi kichik (quvur devorining bir karra qalinligiga teng) ravon ezilgan va gofr mavjud holatlarda (himoya qoplamasi yirtilgan, ko'chib qolgan yoki boshqa nuqsonlar kuzatilganda), ezilgan yoki gofr mavjud bo'lgan joyda quvur devorlarining nuqsonlarini izlash, himoyalovchi qoplamani olib tashlamagan holda (himoya qoplamasi ustidan), MVD-2 turdagi defektoskoplar (magnit-uyurma-tokli defektoskop) yoki shunga o'xshash boshqa asboblarda yordamida amalga oshiriladi. Shunda, aytib o'tilgan asboblarda yordamida ezilgan yoki gofr bo'lib qolgan joyda quvur devorining nuqsonlari aniqlangan holdagina faqat ana shu joydagi himoya qoplamasi tozalab tashlanadi.

6.1.3 Jiddiyroq nuqsonlari mavjud bo'lgan (quvur devorining bir karra qalinligidan kattaroq) quvurning tashqi tekshiruvini o'tkazish uchun nuqson joyida va unga tutash qismlarda uzunligi kamida 500 mm ga teng uchastkada himoya qoplamasi olib tashlanadi va korroziya oqibatlarini tozalab qo'yiladi.

6.1.4 Nuqsonli joyning tashqi tekshiruvi vizual tekshiruvdan, nuqsonlarning geometrik parametrlarini o'lchashdan,

quvur devoriga putur yetkazmagan holda uni nazorat qilish va nuqsonli joydagi devorining qalinligini o'lchashdan (haqiqiy qalinligini aniqlash) iborat bo'ladi.

6.1.5 Vizual tekshirish orqali nuqsonlar tasniflanadi (pachaqlangan yoki gofr paydo bo'lgan), uning o'qlari holati aniqlanadi; gofr mavjud bo'lgan holatda to'lqinlarining soni belgilanadi. Quvur devorining nuqsonli qismida yuzadagi nuqsonlari (g'ajilgan, chizilgan, tirnalgan joylar, yoriqlar, korroziyaga uchragan joylar va sh.k.) qayd qilinadi. Nuqsonli zonaga nisbatan payvand choklarining joylashuvi hamda nuqson chetlari quvurning asosiy yuzasi bilan ravon uyg'unlashuvi qayd qilinadi.

6.1.6 Geometrik parametrlarni asboblardan yordamida o'lchash orqali gaz quvurining o'qi bo'ylab nuqson uzunligi, uning kengligi (aylana yoyi bo'ylab) va chuqurligi aniqlanadi. Bundan tashqari, nuqsonning ikkilamchi to'lqinlari mavjudligini aniqlash maqsadida quvur o'qi va nuqson markazidan o'tuvchi shartli tekislik bilan hosil qilingan nuqsonning markaziy bo'ylama kesimi shaklining taxminiy eskizi tuziladi.

6.1.7 Quvur devorlarining haqiqiy qalinligi va nuqson joyida metall holatining putur yetkazmaydigan nazorati ultratovushli, magnitli defektoskoplar hamda bir vaqtning o'zida ham quvur devorining qalinligini qayd qilish, ham devordagi, shu jumladan quvurning ichki yuzasidagi nuqsonlarni (yoriqlar,

qatlamlarga ajralish va sh.k.) aniqlashga imkon beradigan boshqa vositalar yordamida amalga oshiriladi.

6.1.8 Suv bosgan va botqoqlashgan hududlar, yo'llar va temir yo'llar ostidan, shuningdek suv osti kechuvlaridan o'tuvchi hududlarni tekshirish quvurlar ichida qo'llaniladigan defektoskoplardan foydalangan holda o'tkaziladi.

6.1.9 O'tkazilgan tashqi tekshiruv natijalari bo'yicha qaydnoma tuzilib, unga barcha aniqlangan va o'lchangan parametrlar kiritiladi. Qaydnoma shakli A ilovada keltirilgan.

#### 6.1.10 Vizual nazorat

##### 6.1.10.1 Markirovka mavjudligi va mazmunini tekshirish.

6.1.10.2 Tekshiruv stolining yo'naltiruvchi vositalari bo'y-lab dumalatiladigan quvurning butun tashqi yuzasini, kattalash-tiruvchi asboblardan foydalanmagan holda, puxta tekshirish. Quvurlar yuzasida yoriqlar, plenlar, yirtiq joylar, qayirmalar va boshqa kamchiliklar bo'lmasligi kerak. Quvurlarning uchlari qatlamlarga ajralib qolishi mumkin emas. Quvur devorining qalinligini, quvurlarni ishlab chiqarish texnologiyasiga muvofiq, ruxsat etilgan qiymatlardan qalinroq qilib yubormaydigan quyidagilar mavjud bo'lishiga yo'l qo'yiladi: - yuqa zich to'pon qatlami; - mayda plenlar; - chuqurligi quvur mahsulotining normativ hujjatlari talablari bilan belgilanadigan alohida izlar, chuqurchalar, g'ovaklar va boshqalar. Devor qalinligini minimal ruxsat etilgan qiymatdan kamaytirib yubormaydigan abraziv asbob bilan tozalash orqali quvur yuzasini ta'mirlashga ruxsat

etiladi. Quvurlar uchlariga mexanik shikastlar yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Quvurlar metalli yuzasidagi nuqsonlarni payvandlash yo'li bilan tuzatishga yo'l qo'yilmaydi.

6.1.10.3 Quvurlarning har ikki uchida bir vaqtning o'zida ichki yuzani yoritish yo'li bilan ko'zga ko'rinadigan uzunlikkacha ikki uchining ichki yuzasini puxta tekshirish.

6.1.10.4 Quvurlarning tashqi va/yoki ichki yuzasida, tashqi va/yoki ichki korroziyaga qarshi qoplamani qo'llash uchun mo'ljallangan himoya qoplamasi qo'llangan maydoniga qarab, ezilgan joylar, g'ovaklar, g'ajilgan joylar, o'tkir bo'rtiqlar, eritilgan metall tomchilari, kichik plenlar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

6.1.10.5 Normativ hujjatlar talablariga muvofiq, tashqi yuzadagi nuqsonlarning chuqurligi o'lchash vositalari yordamida nuqsonning yonida joylashgan va mexanik tozalashdan keyin nuqson joyida joylashgan nuqtada va mexanik tozalashdan keyin nuqsonni butunlay yo'q qilish joyda quvurning haqiqiy diametri ayirmasi sifatida aniqlanishi mumkin.

6.1.10.6 Elektrpayvandlangan quvurlarning payvand choklari zich bo'lishi, payvandlanmagan, erimagan joylari, yoriqlar, g'uddalar bo'lmasligi kerak. Chok metalli yuzasida g'ovaklar, kavaklar, yoriqlar, teshiklar va metall mustahkamligini asosiy metall zichligi va mustahkamligidan pasaytirib yuboradigan boshqa nuqsonlar mavjud bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. To'g'ri chokli elektrpayvandlangan quvurlarning payvand choklari

tayanch metallardan chok metalliga o'tkir burchaklarsiz silliq o'tishga ega bo'lishi kerak. Payvand chokining ichki grati iste'molchi talabiga ko'ra yo'q qilinadi. Grat yo'q qilingan joyda quvur devorining qalinligi ruxsat etilgan ingichkalashish chegarasidan chiqmagan holda ingichkalashishiga yo'l qo'yiladi. Yo'q qilingan grat qoldig'ining balandligi Buyurtmachining quvur yetkazib berish bo'yicha normativ hujjatda (NH) ko'rsatilgan qiymatdan ortiq bo'lmasligi lozim. Quvur uchidan 300 mm dan yaqin masofadagi uchastkalarida payvandlangan quvur birikmalari hamda kuygan joylar va yoriqlari mavjud bo'lgan quvurlarni payvandlab ta'mirlashga yo'l qo'yilmaydi. Nuqsonlarni kesish yoki eritish, so'ng payvandlash yo'li bilan ta'mirlangan payvand chokining uzunligi kamida 50 mm va uzog'i bilan 300 mm gacha bo'lishi kerak. Alohida ta'mirlangan choklar bir-biridan kamida 500 mm masofada joylashgan bo'lishi lozim. Ta'mirlangan uchastkalarining umumiy uzunligi payvand choki uzunligining 10% dan oshmasligi kerak. 0,5 mm gacha chuqurlikda va 50 mm gacha uzunlikdagi kesiklar tuzatishsiz, shuningdek, devor qalinligini minimal ruxsat etilgan qiymatdan pastroqqa tushirmaydigan bo'lsa ruxsat etiladi. Payvand choki g'ovakli bo'lmaganda payvand choklarining mustahkamlagichlarida payvand chokining minimal balandligidan past bo'lmagan ravon chuqurchalar (egar) bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

6.1.10.7 Diametri 1020 mm va undan ortiq bo'lgan quvurlar ichki yuzasining sifat nazorati butun uzunligi bo'ylab ichkaridan bevosita ko'zdan kechirish yo'li bilan amalga oshirilishi kerak. Diametri 1020 mm dan kichik bo'lgan quvurlar ichki yuzasining sifat nazorati quvurning bir uchida yorug'lik manbaini joylashtirgan holda, oraliq aniq ko'rinishi yuzasidan o'tkaziladi. Ichki yuzalarda nuqsonlarning chuqurligi aniqlanmaydi. Zarurat yuzaga kelganda, oralatib tanlash tartibida, quvur qismlarga kesib qo'yilishi va yanada puxta tekshiruvdan o'tkazilishi, va nuqsonlar tekshirilishi mumkin.

#### 6.1.11 Qoplamali quvurlarni nazorat qilish va ta'mirlash

6.1.11.1 Tashqi qoplamasi polietilenli yoki epoksidli, ichki qoplamasi esa epoksidli bo'lgan quvurlarda qo'shimcha ravishda quyidagilar nazorat qilinadi:

- himoya qilinmagan quvurlar uchlarining uzunligi;
- ichki va tashqi qoplamaning qalinligi;
- ichki va tashqi qoplamaning tashqi ko'rinishi;
- ichki qoplamani himoyalash uchun birlashtiruvchi elementlarning butligi va geometrik o'lchamlari;
- qoplama qiyaligining quvur tanasiga nisbatan burchagi;
- shubha uyg'otuvchi joylarda va nuqsonli uchastkalarda korroziyaga qarshi qoplamaning dielektrik yaxlitligi;
- butun turkumdan ikkita quvurlarda va shubha uyg'otuvchi joylarda qoplamaning po'latga nisbatan adgeziyasi (birikishi).

6.1.11.2 Qoplamali quvurlarni ishlab chiqarish va yetkazib berishga oid texnik shartlarda nazorat usullari, o'lchamlar va ruxsat etilgan og'ishlar ko'rsatilishi lozim.

6.1.11.3 Yuk tashish, yuk ortish-tushirish va yuk saqlash jarayonida paydo bo'lgan tashqi qoplamaning mahalliy nuqsonlari mavjud bo'lgan taqdirda, ularni ta'mirlashga yo'l qo'yiladi.

6.1.11.4 Ta'mirlash uchun ishlatiladigan materiallar va ta'mirlash ishlarini o'tkazish texnologiyasi qoplangan quvurlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish bo'yicha texnik shartlar talablariga muvofiq qoplama sifatini ta'minlashi lozim.

6.1.11.5 Shikastlangan joylarni ta'mirlash ishlari belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan texnologik hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

6.1.11.6 Qoplamaning umumiy qalinligini minimal qiymatlardan kamaytirib yubormaydigan shikastlanishlarni ta'mirlash talab etilmaydi.

6.1.11.7 Ta'mirlash ishlarini o'tkazish texnologiyasi ta'mirlashda ishlatiladigan materiallarni ishlab chiqaruvchi korxonalar tavsiyalariga muvofiq bo'lishi lozim.

6.1.11.8 Ta'mirlangan uchastkaldani qoplama asosiy qoplamadan ajralib qolishi va yorilishi mumkin emas. Qoplama qalinligi va dielektrik yaxlitligi bo'yicha qoplamaga oid normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

6.1.11.9 Aytib o'tilgan talablar quvurlarning tashqi polimer qoplamasining shikastlangan joylarini ta'mirlashga nisbatan ham amal qiladi. Quvurlarning ichki qoplamasini ta'mirlashga yo'l qo'yilmaydi.

6.1.11.10 Zavodda tatbiq etilgan tashqi qoplarni ta'mirlash ishlari quvurlarni joylash va saqlash joylarida, shuningdek, quvurlar qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish joyiga tashib kelingan va bu ishlar bajarilgandan keyin, bevosita quvuro'tkazgichni qurish uchastkalarida amalga oshirilishi lozim.

6.1.11.11 Quvurlar ularni ishlab chiqargan zavoddan qurilish-montaj ishlari bajariladigan joygacha olib kelinayotganda ro'y bergan qoplamaning barcha teshib o'tgan va teshib o'tmagan shikastlanishlari (qoplama po'latdan ajralib qolgan, qirilib qolgan, tirnalgan va pachaqlangan joylarda, qolgan qoplama qalinligi va dielektrik yaxlitligi talab etiladigan qiymatlardan kamayib ketganda) ta'mirlanishi kerak.

6.1.11.12 Qoplamaning shikastlangan joylarini ta'mirlashga oid ishlar ROT va texnologik kartalarga muvofiq "Hududgaz Konsalting" MChJda o'qitilgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi lozim.

6.1.11.13 Ta'mirlovchilar brigadalari texnologik kartalarda ko'zda tutilgan zarur texnologik va yordamchi uskunalardan bilan butlangan bo'lishi kerak.

6.1.11.14 Zavodda bajarilgan qoplamaning teshib o'tmagan shikastlanishlarini (tirnalishlar, ezilgan joylar) ta'mirlashda issiqlik ta'sirida eriydigan to'ldiruvchilar qalamlar hamda

dastaki pistolet-ekstruderlar qo'llaniladi. Qoplamaning shikastlangan joyini issiq havo ( $\phi\text{EH}$ ) yoki mayin olov, propan gorelka bilan qizdirish, so'ng qoplamani ftoroplastli rolik yoki shpatel yordamida tekislash orqali ta'mirlashga yo'l qo'yiladi.

6.1.11.15 Zavod qoplamasining teshib o'tgan va teshib o'tmagan shikastlanishlarini ta'mirlashda, ta'mirlash ishlarida qo'llaniladigan materiallarni ishlab chiqaruvchi korxonalar tavsiyalariga muvofiq, o'z xususiyatlari bo'yicha zavodning himoya qoplamasiga mos keladigan ta'mirlash materiallari ishlatilishi lozim.

6.1.11.16 Zavod qoplamasining shikastlangan joylarini ta'mirlashda ishlatiladigan materiallar ularga oid standartlar yoki texnik shartlar talablariga javob berishi kerak. Ta'mirlash materiallarining ishlab chiqaruvchi-yetkazib beruvchilari ularning sifatini kafolatlashi va ulardan foydalanish tartibi va texnologiyasini taqdim etishlari lozim.

6.1.11.17 Qoplamaning ta'mirlangan qismlari quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat qilinishi kerak: tashqi ko'rinishi, qalinligi, dielektrik yaxlitligi. Xususiyatlarning ushbu ko'rsatkichlari bo'yicha ta'mirlanadigan uchastkalaridagi qoplama quvurlarning zavod qoplamasiga mos kelishi lozim.

6.1.11.18 Qolgan talablar – ГОСТ 31448 va [1] ga muvofiq.

6.1.12 Tekshiruvdan o'tkazilgan quvurlar markirovka qilinishi kerak. Markirovka quvur uchidan 100-150 mm masofa-

da yuvilib ketmaydigan bo'yoq bilan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- quvurning tartib raqami;
- tekshiruvdan o'tkazilgandan keyin quvur kiritilgan toifa indeksi: П – foydalanish uchun yaroqli; P – keyingi foydalanish uchun ta'mirlashni talab qiluvchi; Y – bevosita maqsadi bo'yicha foydalanish uchun yaroqsiz; Б – keyingi foydalanish uchun yaroqsiz.

6.1.13 Ko'rsatkichlari standartlar talablariga va sertifikat ma'lumotlariga ko'ra javob bermaydigan yoki ularning raqamlari olingan sertifikatlarda mavjud bo'lmagan quvurlar keyingi qabul qilishdan chiqarib tashlanadi.

6.1.14 Kirish nazoratining natijalari bo'yicha korxonada buyrug'i bilan tayinlangan komissiya dalolatnoma tuzib, unda tekshiruvdan o'tkazilgan quvurlar sonini va toifaning turli indekslariga ega bo'lgan quvurlar sonini ko'rsatadi. Shuningdek, quvurlarni qanday sabablarga ko'ra ta'mirlash talab etilishi yoki keyingi foydalanish uchun yaroqsiz ekanligi dalolatnomada ko'rsatilishi kerak.

6.1.15 Kirish nazoratining natijalari bo'yicha quvurlar yetkazib berish uchun amaldagi NH talablariga javob berishi sharti bilan yaroqli hisoblanadi. Quvurlarni nazorat qilish natijalari sotib olingan mahsulotlarni tekshirish jurnalida ГОСТ 24297 da keltirilgan shakl bo'yicha qayd etilishi lozim.

6.1.16 Quvurlar va qoplamalardagi nuqsonlar hamda geometrik parametrlarning og'ishlari, mahsulot yetkazib berish holatini buzmaganda, mahsulot yetkazib beruvchisiga taqdim etilishi kerak.

## **6.2 Quvurlar va QBDni nazorat qilish usullari va hajmlari**

6.2.1 Quvurlar va QBDni tekshirishda 6.3.1-6.3.5 bandlarida ko'rsatilgan nuqsonlarni aniqlashga imkon beradigan putur yetkazmaydigan nazorat usullari va asboblardan foydalaniladi. Qo'llaniladigan nazorat usullari va asboblari (DIO-562, WT-600S, UT-93Π kabi ultratovushli defektoskoplar va qalinlik o'lchagichlari) quvurlar va QBDning tashqi (chuqurligi 0,3 mm) va ichki (chuqurligi 0,1 mm) nuqsonlarini aniqlashni ta'minlashi lozim.

6.2.2 Quvurlarni brakka chiqarishda putur yetkazmaydigan nazorat qilish hajmi quvurlar va QBDning texnik holatiga ko'ra, lekin 6.2.2.1-6.2.2.4 bandlarida ko'rsatilgan hajmlardan kam bo'lmagan holda olinadi.

6.2.2.1 Asosiy metall nuqsonlarini (korroziya nuqsonlari, chuqurchalar, gofrlar, tirnalishlar, g'ajilishlar va boshqalar) va payvandlangan birikishlar nuqsonlarini (kesiklar, payvandlangan qirralar surilib ketishi va sh.k.) hamda quvurlar (QBD) va aniqlangan nuqsonlarning geometrik o'lchamlarini aniqlash uchun 100 % hajmda vizual va o'lchov nazorati amalga oshiriladi.

6.2.2.2 Vizual va o'lchov nazoratining natijalari bo'yicha quvurlar metallini, zavodning payvand choklarini ultratovushli nazorat qilish brakka chiqarilgan quvurlar yuzasi maydonining kamida 50 % hajmida va payvand choklar uzunligining kamida 5 % miqdorida amalga oshiriladi.

6.2.2.3 Quvur devori qalinligini o'lchash quvurning diametridan qat'i nazar, aylana bo'ylab to'rtta diametral joylashgan nuqtalarda va quvuro'tkazgichning har bir pogon metridagi kamida to'rtta uchastkalarida kamida 0,1 mm aniqlikda ultratovushli defektoskop yoki qalinlik o'lchagichi yordamida amalga oshirilishi kerak, nuqsonli devorlar ingichkalashgan joylarida esa oralig'i 25 mm dan katta bo'lmagan to'r usulida, lekin nuqsonli uchastkalarda kamida 10 ta nuqtada o'lchashlar amalga oshiriladi.

6.2.2.4 Quvurlar, quvuro'tkazgichlar detallari va shu kabilarning tashqi diametrini (57 mm gacha bo'lganda) o'lchashda diametr qiymati sifatida ikkita o'zaro perpendikulyar yo'nalishdagi diametr o'lchovlarining arifmetik o'rtacha qiymati olinadi. O'lchovlar xatoligi 0,1 mm dan ortiq bo'lmagan shtangensirkul yordamida amalga oshiriladi.

Diametri 57 mm dan ortiq bo'lgan quvurlar va QBD uchun tashqi diametrning  $D$  (mm) qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$D = \frac{\Pi}{3,142} - 2T \quad (1)$$

bunda  $\Pi$  – aniqligi 0,5 mm gacha bo'lgan ruletka yordamida o'lchangan perimetr (mm);

T – ruletka tasmasining qalinligi, mm.

6.2.2.5 Payvandlangan montaj birikmalar nazorati (hajmlari, usullari va sifatini baholash) [2] talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.2.2.6 Quvurlar va QBDni tekshiruvdan o'tkazishda, tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarga muvofiq, putur yetkazmay-digan nazoratning qo'shimcha usullarini (rentgen, kapillyar va sh.k.) qo'llash tavsiya etiladi.

### **6.3 Quvurlar va QBD nuqsonlarining turlari**

6.3.1 Quvurlar va QBD nuqsonlari quyidagilarga bo'linadi:

- a) mexanik tabiatli nuqsonlar;
- b) ishlatish nuqsonlari.

6.3.2 Mexanik tabiatli nuqsonlarga quyidagilar qiradi: ezilgan joy; gofr; quvur egriligi; oval shaklidagi; tirlangan; g'ajilgan joylar; chuqurchalar.

6.3.3 Ishlatish nuqsonlariga quyidagilar qiradi: korroziya nuqsonlari va stress – korroziya nuqsonlari. Korroziya nuqsonlariga quyidagilar kiritiladi: bir tekisdagi korroziya; bir tekis bo'lmagan korroziya; mahalliy korroziya; nuqtasimon korroziya (pitting); dog'simon korroziya; korroziyali yaralar. Stress-korroziyali nuqsonlar quyidagilardan iborat: qatlamlarga bo'linib ketish, korroziya-toliqishli yoriqlar.

6.3.4 Quvurlar va QBD nuqsonlari (6.3.2 – 6.3.3 bandlarda ko'rsatilgan) quyidagilarga bo'linadi:

- a) asosiy metall va payvand choklarining yuza nuqsonlari;
- b) asosiy metall va payvand choklarining ichki nuqsonlari;
- c) quvurlar va QBD geometriyasi nuqsonlari;

6.3.4.1 Asosiy metallning yuza nuqsonlariga tashqi yoki ichki yuzaga chiqadigan quyidagi nuqsonlar qiradi:

- a) mexanik tabiatli nuqsonlar - tirnalishlar, g'ajilgan joylar, chuqurchalar (6.3.2);
- b) 6.3.3 bandida ko'rsatilgan ekspluatatsion korroziya nuqsonlari.

6.3.4.2 Asosiy metallning ichki nuqsonlariga yuzaga chiqmaydigan nuqsonlar qiradi – qatlamlarga ajralish, korroziya-toliqishli yoriqlar.

6.3.4.3 Zavod payvand choklarining yuza nuqsonlariga yuzaga chiqadigan quyidagi nuqsonlar qiradi: yoriqlar; g'ovaklar; kovaklar; payvand chokidagi teshiklar; payvandlangan birikma yuzasining oksidlanishi;

6.3.4.4 Zavodda payvandlangan va montaj qilishda payvandlangan choklarning ichki nuqsonlariga eritilgan metall va termik ta'sir zonasidagi kelib chiqishi har qanday yoriqlari qiradi.

6.3.4.5 Quvurlar va QBD geometriyasi nuqsonlariga quyidagilar qiradi: ezilgan joylar; gofr; egilgan, oval shaklidagi quvurlar.

## **6.4 Shakli o'zgargan (deformatsiya) holatini baholash**

6.4.1 Ezilgan joy va (yoki) gofrning deformatsiya holatini baholash uchun quyidagilar qo'llaniladi:

- gaz quvuri kesimining geometrik parametrlari (quvurning tashqi diametri va devorining haqiqiy qalinligi);
- nuqsonning bo'ylama va aylanma yo'nalishlardagi gabarit o'lchamlari va chuqurligi;
- quvur materialining fizik xususiyatlari (elastiklik moduli va Puasson koeffitsiyenti);
- gaz quvuridagi ishchi (normativ) bosim;
- gaz quvurining ushbu kesimida haqiqiy gaz bosimi.

## **6.5 Quvurlar metallining holatini baholash**

6.5.1 Quvur metalining holatini baholash gaz sizib chiqishini bartaraf etish va himoya qoplamalarini ta'mirlash uchun ochilgan barcha shurflarda, bundan tashqari, ishlatish jarayonida, turli ta'mirlash ishlari vaqtida ochilgan barcha shurflarda amalga oshirilishi lozim. Agar shurflarning himoya qoplamasida shikastlanish aniqlanmasa, quvurlar metallining holati tekshirilmaydi. Baholash natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtirilishi kerak.

6.5.2 Ochilgan shurfdagi quvur metallining holatini baholash uchun kamida 0,5 m uzunlikdagi quvur qismini himoya qoplamasidan puxta tozalash lozim. So'ng quvur yuzasini diqqat bilan tekshirish, quvurning pastki qismini esa ko'zgu yordamida ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Metallning yarali shikastlanishlari ko'pincha korroziya mahsulotlari bilan tiqilib qolishini va ular faqat puxta tekshirishda va korroziya mahsulotlarini pichoq uchi bilan yoki boshqa o'tkir predmet yordamida tozalab tashlashdagina aniqlash mumkinligini yodda tutish lozim.

Bunday yaralar chuqurligini o'lchash uchun shtangensirkul yoki maxsus mikrometrik chuqurlik o'lchagichdan foydalanish kerak.

Quvur yuzasida yaxlit korroziya mavjud bo'lganda, quvur devorining qalinligini aniqlash talab etiladi.

1-jadvalda korroziya darajasiga qarab quvur devorining shikastlanish xususiyatlari ko'rsatilgan.

1-jadval - Quvur devorining shikastlanish xususiyatlari

Korroziya darajasi	Quvur devorining shikastlanish xususiyatlari
Jiddiy emas	Metall yuzasida zang dog'lari va chuqurligi 0,6 mm gacha bo'lgan yakka-yakka shikastlanishlar (yaralar) mavjud
Jiddiy	Metall yuzasi korroziyaga uchragan va chuqurligi devor qalinligining 30 % gacha bo'lgan yakka-yakka yoki uyali shikastlanishlar (yaralar) mavjud
Juda jiddiy	Metall yuzasi korroziyaga uchragan va chuqurligi devor qalinligining 30 % dan ortiq bo'lgan yakka-yakka yoki teshilishi yaqinlashayotgan korroziyali shikastlanishlar (yaralar) mavjud

Izoh - uyali shikastlanish (yaralar) deb oralaridagi masofa eng kichik shikastning 10 diametridan katta bo'lmagan ikkita yoki undan ortiq shikastlanishlar (yaralar) hisoblanadi.

6.5.3 Quvur devori qalinligini aniqlash uchun bir tomonlama kirishda qalinliklarni o'lchashga imkon beradigan impulsli

rezonansli qalinlik o'lchagichlardan foydalanish lozim. Buning uchun "Кварц-6", "Кварц-14", УИТ-Т10 kabi qalinlik o'lchagichlari va boshqa zamonaviy qurilmalarni tavsiya etish mumkin.

6.5.4 Agar 6.5.2 bandining talablariga muvofiq amalga oshirilgan quvur yuzasini tekshirish vaqtida kuchli yoki juda kuchli korroziya aniqlansa, u holda himoya qoplamasining asboblari yordamida eng ko'p shikastlanishlari aniqlangan gaz quvurining har bir 500 m da ochiladigan ikkita shurfida quvur metallini ko'rib chiqish yo'li bilan gaz quvurining qo'shimcha tekshiruvini o'tkazish lozim.

6.5.5 Quvur metallining ahvolini baholash natijalari ushbu Yo'riqnomaning B ilovasidagi B.1-jadvaliga baholashning umumiy ballari shaklida kiritiladi. Quvur metallining ahvoli bo'yicha bir ballik baho olgan gaz quvurlari, boshqa mezonlar bo'yicha olingan ballarning umumiy miqdoridan qat'i nazar, almashtirilishi shart.

## **6.6 Korroziyadan yemirilganlikni baholash**

6.6.1 Er ostidagi po'lat gaz quvurlarining korroziyadan yemirilganligi darajasi quyidagicha aniqlanishi lozim:

- himoya qoplamasining holatini tekshirish natijalari bo'yicha;

- daydi toklar bilan yuzaga keltirilgan anodli va belgisi o'zgaruvchan zonalar mavjudligi bo'yicha;

- gaz quvurida himoyalovchi potentsiallar mavjudligi bo'yicha;

- tuproqning korrozion faolligi bo'yicha.

6.6.2 Er ostidagi gaz quvurlarining korroziyadan yemirilganligi darajasini baholash uchun quyidagilar aniqlanishi kerak:

- gaz quvurlarining korroziyaga chalinish bo'yicha xavfli zonalarida joylashgan qismlari;

- gaz quvurlarining daydi toklar bilan yuzaga keltirilgan anodli va belgisi o'zgaruvchan potentsiallarga ega bo'lgan qismlari;

- turdosh yer ostidagi inshootlarni himoya qiluvchi amaldagi elektr himoya qurilmalarining ta'sir zonolari.

6.6.3 Tuproqlar, yerosti va boshqa suvlarning korrozion faolligi amaldagi hujjat bo'yicha aniqlanishi lozim.

6.6.4. Daydi toklar tarqalishi shartlarini aniqlash uchun relslar va so'ruvchi nuqtalarining yerga nisbatan potentsiali, tortish podstansiyalarining manfiy shinalari orasidagi potentsiallar farqi to'g'risida ma'lumotlar olish kerak.

6.6.5 Amaldagi gaz quvurlarida daydi toklarning mavjudligi gaz quvuri va yer orasidagi potentsiallar farqni o'lchash orqali aniqlanishi lozim. Potensial ayirmasining kattalikdagi va belgidagi yoki faqat kattalikdagi o'zgarishi yerda daydi toklar mavjudligidan darak beradi.

6.6.6 Gaz quvurlaridagi elektr potentsiallarni po'lat taqqoslash elektrodleri bilan jihozlangan nazorat-o'lchash punktlari

orqali o'lchashda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun, ko'chma mis-sulfatli taqqoslash elektrodleri yordamida o'lchashlarni oralatib nazorat qilishni amalga oshirish lozim.

Agar belgilangan elektrodler bilan o'lchash natijalarida sezilarli tafovutlar olinsa, elektr potentsiallari faqat nazorat o'tkazgichlar yonida yerga o'rnatilishi kerak bo'lgan mis sulfat elektrodleri yordamida o'lchanishi lozim. Belgilangan elektrodler bilan o'lchash natijalarida sezilarli tafovutlar olinsa, elektr potentsiallarini faqat nazorat o'tkazgichlar yonida yerga o'rnatilishi lozim bo'lgan mis-sulfatli elektrodler yordamida o'lchash kerak.

6.6.7 Gaz quvuri va yer orasidagi potentsiallar farqini, shuningdek gaz quvuridagi tok kattaligi va yo'nalishini o'lchash va o'lchashlar natijalariga ishlov berishni amaldagi hujjatga muvofiq bajarish lozim.

6.6.8 Tashqi qutblanish ta'sirida gaz quvurlarida anodli yoki belgilari o'zgaruvchan zonalarning mavjudligi, "quvur-tuproq" potentsiallari farqining kattaligidan va tuproqning korrozion faolligidan qat'i nazar, korroziyaga chalinish xavfi ostida bo'ladi.

6.6.9 O'zgaruvchan tokda ishlaydigan elektrlashtirilgan transportdan tushadigan tok oqimining ta'sirida quvur va mis-sulfat elektrodi o'rtasidagi potentsiallar farqi, gaz quvurining statsionar potentsiali bilan solishtirganda, manfiy tomonga 10 millivolt dan ortiq siljishi kuzatiladigan yer ostidagi po'lat gaz quvurlari korroziyaga chalinish jihatdan xavfli hisoblanadi.

6.6.10 Gaz quvurida elektr-korroziya jihatdan xavfli hisoblangan zonalar mavjud bo'lganda quyidagilarga aniqlik kiritish lozim:

- ko'rsatilgan gaz quvurlarini himoyalovchi elektr-himoyalash qurilmalarining ta'sir zonolari (shu jumladan elektrhimoyalash qurilmalarining ishlash rejimining o'zgarishi);

- himoyalovchi tok oqib ketishi yo'llari.

Erga tutashtirilgan uskunalar va boshqa inshootlar (gaz taqsimlash punktlari, qozonxonalar, oqimli gaz yordamida suv qizdirish vositalari bilan jihozlangan turar joy va jamoat binolari va sh.k.) bilan bevosita kontakti mavjud bo'lgan gaz ta'minoti ob'yektlarida elektr-himoyalovchi flanetslar mavjudligiga alohida e'tibor qaratish kerak.

6.6.11 Yuqorida qayd etilgan ob'yektlarda elektr himoyalovchi flanetslar mavjud bo'lmaganida himoyalovchi tok yo'qotishlarini taxminiy hisoblash uchun ushbu Yo'riqnomaga B ilovasining B.2 jadvaliga muvofiq ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Agar taxminiy hisob-kitoblar natijasida himoyalovchi tokning sezilarli yo'qotishlari aniqlansa, yuqorida qayd etilgan gaz quvuri ob'yektlarida himoyalovchi tok yo'qotishlarini to'g'ridan-to'g'ri o'lchash yo'li bilan tekshirish lozim. Shuningdek daydi toklar qiymatini cheklash bo'yicha rejalashtirilayotgan choratadbirlar (va ularning muddatlari) haqidagi ma'lumotlarni hamda daydi toklar manbalarining zonasida joylashgan gaz

quvurining korroziyaga chalinishi xavfini oshirishga qodir bo'lgan ushbu daydi toklar manbalari inshootlarining ishlash rejimining ehtimoliy o'zarishlari haqidagi ma'lumotlarni olish zarur.

6.6.12 7.4.7 bandida ko'rsatilgan omillarga qarab, ta'mirlash ishlarining ko'lami aniqlanadi va turi tayinlanadi. Qurilma-ning quvvatlaridan to'liq foydalanish maqsadida, elektr himoyalovchi flanetslar yordamida himoyalovchi tok yo'qotishlarini, elektr himoyalovchi qurilmalar ishidagi tanaffuslarni qisqartirish yoki ularning ishlash rejimini o'zgartirish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

6.6.14 Ushbu Yo'riqnomaga C ilovasining C.3 jadvaliga muvofiq, gaz quvurlari uchun korroziya xavfini umumiy baholashni gaz quvurlarida anod va belgisi o'zgaruvchan zonalar mavjudligiga qarab amalga oshirish kerak.

## **6.7 Baholash natijalarini rasmiylashtirish**

6.7.1 Texnik holat bo'yicha tashqi tekshiruvning va putur yetkazmaydigan nazorat orqali baholash natijalari qaydnomaga kiritiladi (A ilova).

6.7.2 Texnik baholashdan o'tkazilgan quvurlar (detallar, armatura elementlari) markirovka qilinishi kerak.

Markirovka quvur uchidan 100-150 mm masofada yuvilib ketmaydigan bo'yoq bilan quyidagi tartibda bajarilishi lozim:

- a) quvurning tartib raqami;
- b) haqiqiy qalinligi;

c) uzunligi.

6.7.3 Texnik holatini baholash natijalari bo'yicha quvurlarni ishlatuvchi korxonalar rahbari tomonidan tayinlangan maxsus komissiya xulosa chiqarib beradi. Ushbu xulosada baholangan, shu jumladan guruh bo'yicha taqsimlangan va ta'mirlash turi bo'yicha tavsiyalar berilgan quvurlarning umumiy soni ko'rsatiladi:

1-guruh – “Hududgazta'minot” AJ transport tizimida gaz quvurlarini qurishda qayta foydalanish uchun yaroqli bo'lgan quvurlar;

2-guruh – “Hududgazta'minot” AJning mintaqaviy taqsimlovchi gaz tarmoqlarida ishlatish uchun yaroqli bo'lgan quvurlar;

3-guruh – iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ishlatish uchun yaroqli bo'lgan quvurlar;

4-guruh – metall chiqindilariga topshirilishi lozim bo'lgan quvurlar.

6.7.4 Barcha xulosalar ishlarni o'tkazish joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining mintaqaviy inspektorlari bilan kelishiladi.

6.8 Quvurlar holatini baholash ishlari akkreditatsiyadan o'tkazilgan mustaqil putur yetkazmaydigan nazorat laboratoriyasi mavjud va O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining maxsus ruxsatnomasiga ega bo'lgan

tashkilotlar tomonidan shartnomaviy asoslarda amalga oshiriladi.

## **7 Quvurlarni brakka chiqarish**

### **7.1 Brakka chiqarish tartibi**

7.1.1 Quvurlarni brakka chiqarish ishlarini ushbu quvurlarni ishlatuvchi korxonalar rahbarining tomonidan tayinlangan maxsus komissiya amalga oshiradi va uning tarkibiga tegishli mutaxassislar, akkreditatsiyadan o'tkazilgan mustaqil putur yetkazmaydigan nazorat laboratoriyasi mavjud va O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining maxsus ruxsatnomasiga ega bo'lgan tashkilot vakillari kiritilishi lozim.

Quvurlarni brakka chiqarish ishlari gaz quvuri kovlab ochilgandan keyin va uning o'chirilgan qismi himoya qoplama-sidan tozalangandan keyin amalga oshiriladi.

7.1.2 Gaz quvuri yuzasidagi shikastlangan joylarni, ularning uzunligini va maydonini o'lchash mumkin bo'lishi uchun, korroziya zangidan tozalanishi va konturi bo'ylab bo'r yoki moy bo'yoq bilan belgilab chiqilishi kerak.

7.1.3 Shikastlanishlar xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar 7.1 jadvalidagi shakl bo'yicha maxsus jurnalga kiritiladi.

## 7.1 jadvali – Gaz quvurini tekshirish jurnali

**JURNAL**

Diametri \_\_\_\_\_ gaz quvurining  
\_\_\_\_\_ km dan \_\_\_\_\_ km gacha qismida tekshiruv o'tkazishga  
oid

Piket km	Qis- mining raqami	Qismi- ning uzun- ligi, m	Po'lat mar- kasi, quvur- larni ishlab chiqar- gan zavod	Shi- kastla- nishlar chu- qurligi, mm	Shi- kastla- nishlar uzunligi, sm	Shi- kastla- nishlar maydo- ni, sm	Bir- biriga yaqin turgan shikast- lanishlar orasidagi masofa, sm	Ta'mir- lash turi bo'yicha komis- siyaning qarori	Izoh
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

7.1.4 Kavak chuqurligi shtangensirkul, mikrometrik chuqurlik o'lchagichi yoki chuqurlik o'lchagichi yordamida ular uchun amal qiladigan normativ hujjatlar bo'yicha o'lchanadi.

7.1.5 Korroziyadan shikastlangan joylar uzunligi shtangensirkul yoki metall lineyka yordamida, qo'shni nuqsonlar orasidagi masofa esa – lineyka yoki ruletka yordamida o'lchanadi.

7.1.6 Shikastlangan joy maydoni uning o'zaro perpendikulyar yo'nalishlarda o'lchangan o'lchamlarini ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

7.1.7 Gaz quvuri ob'yektini tekshirgandan keyin komissiya, brakka chiqarish mezonlariga amal qilgan holda, quvuro'tkazgich yuzasini ta'mirlash turi bo'yicha qaror qabul qiladi.

7.1.8 Komissiya qarorining natijalari, quyidagi belgilarni qo'llagan holda, tekshirilgan gaz quvuridagi shikastlangan joylarida bo'r yoki moy bo'yok bilan bajarilishi lozim (7.2 jadvali):

7.2 jadvali – Tekshirilgan gaz quvuridagi belgilar

Ta'mirlash turi	Belgilanishi
1 Shikastlangan uchastkani tozalash	“ЗЧ”
2 Dastaki yoyma payvand bilan metall eritib qoplash	“НП”
3 G'altakni almashtirgan holda uchastkani ta'mirlash	“БК”

7.1.9 Ta'mirlanayotgan gaz quvuri uchastkasini tekshirish natijalari asosida dalolatnoma tuziladi va unda uchastkalar uzunligi, qismlar soni, ishlatish uchun yaroqli, brakka chiqarilgan va ta'mirlanishi lozim bo'lgan quvurlar soni bo'yicha aniq ma'lumotlar keltiriladi. Dalolatnomaga tekshirish jurnali ilova qilinadi.

7.1.10 Yaroqli quvurlarni buyurtmachi dalolatnoma bo'yicha mas'uliyatli saqlash uchun pudratchiga uzatadi.

## **7.2 Brakka chiqarish normalari**

7.2.1 Quvurlar, quvuro'tkazgichlar detallari, armatura, shu jumladan quyilgan armatura (zadvijkalar, klapanlar korpuslari va sh.k.) quyidagi sharoitlarda brakka chiqarilishi lozim: agar devorning hisobiy qalinligi (korroziyaga qo'shimchani hisobga

olmagan holda) 7.3, 7.4 jadvallarida ko'rsatilgan qiymatlardan kichikroq bo'lsa, brakka chiqarish qalinligi 7.3 yoki 7.4 jadvallari bo'yicha olinadi.

7.3 jadval – Quvurlar va quvuro'tkazgichlar detallari uchun brakka chiqarish qalinliklari

Tashqi diametri, DN, mm	25	57	114	219	325	377	426
Quvur devorining ruxsat etilgan eng kichik qalinligi, mm	1,0	1,5	2,0	2,5	3,0	3,5	4,0

7.4 jadval – Zadvijkalar, armatura va quyima detallar uchun brakka chiqarish qalinliklari

Nominal diametri, mm	80	100	125	150	200
Quvur devorining ruxsat etilgan eng kichik qalinligi, mm	4,0	5,0	5,5	6,0	6,5
Izoh - Texnik jihatdan asoslangan hollarda ushbu normalardan cheklanishga yo'l qo'yiladi					

Quvuro'tkazgichlar elementlari devorining brakka chiqarish qalinligi loyihalash hujjatlarida ko'rsatili. Quvurlar va quvuro'tkazgichlarning detallari quyidagi sharoitlarda brakka chiqariladi:

- taftish o'tkazish vaqtida yuzada yoriqlar, qatlamlarga ajralish, deformatsiyalar (gofrlar, ezilgan, bo'rtib chiqqan joylar va sh.k.) aniqlandi.

- muhit ta'siri natijasida navbatdagi taftishgacha ishlash davomida devor qalinligi mustahkamlik bo'yicha hisoblab chiqish yo'li bilan aniqlanadigan brakka chiqarish o'lchamlari chegaralaridan chiqib ketadi;

- metallning mexanik xususiyatlari o'zgardi va ularni amaldagi normativ-texnik hujjatlarga va ushbu standartga muvofiq brakka chiqarish talab qilinadi;

- payvand choklarini tekshirishda to'g'rilash lozim bo'lmagan nuqsonlar aniqlandi;

- rezbali ulanishlarning o'lchamlari ruxsat etilgan (допуск) doiralaridan chiqib ketgan va rezbada uzilgan, yorilgan, korroziyaga uchragan joylar mavjud;

- quvuro'tkazgich gidravlik yoki pnevmatik sinovga bardosh bera olmadi;

- armaturaning zichlantiruvchi elementlari shu qadar yemirilib ketganki, texnologik jarayonni yuritishni ta'minlay olmaydi, ularni ta'mirlash yoki almashtirish esa mumkin emas.

7.2.2 Flanetslar quyidagi sharoitlarda brakka chiqariladi:

- boshqa detallar yuzalariga tegib turadigan quvur yuzalarining qoniqarsiz ahvoli;

- yoriqlar, kavaklar va boshqa nuqsonlar mavjudligi;

- flanetslar deformatsiyalari;

- flanets yoqasi devorining qalinligi quvurni brakka chiqarish o'lchamlarigacha ingichkalanishi;

- Yo'riqnomaning 1.1 bandida belgilangan bosimlardan ortiq bo'lmagan rezbali flanetslarda rezba uzilishi, g'ijimlanishi va yemirilishi, shuningdek rezbada amaldagi NH bo'yicha ruxsat etilgan qiymatdan ortiq bo'lgan lyuft mavjudligida. Zichlatuvchi yuzalarda yoriqlar, chuqurchalar, siniqlar va ezilgan joylar, deformatsiyalar mavjud bo'lganda oval kesimining linzalari va qistirmalari brakka chiqariladi.

7.2.3 Mahkamlash detallari quyidagi hollarda brakka chiqariladi:

- rezbada yoriqlar, uzilishlar yoki korroziyadan yemirilishlar paydo bo'lganda;

- bolt va shpilkalar egilib qolganda;

- rezbaning shaklining o'zgarishiga olib keladigan qoldiq deformatsiya kuzatilganda;

- bolt va gaykalar boshchalarining yon qirralari yemirilganda;

- metallning mexanik xossalari yo'l qo'yiladigan darajadan ortiq pasayib ketganda.

7.2.4 Silfonli va linzali kompensatorlar quyidagi hollarda brakka chiqariladi:

- silfon yoki linza devorining qalinligi kompensatorning pasportida ko'rsatilgan hisobiy qiymatga yetib keldi;

- silfon devorining qalinligi 0,5 mm, silfonning hisobiy qalinligi esa yanada past qiymatlarga ega;

- kompensatorlar tomonidan hujjatlarda ko'rsatilgan siklonlarning hisobiy soniga yetganda, va ular yong'in-portlashdan xavfli va toksik muhitlarda ishlatilayotganda.

7.2.5 Brakka chiqarish normalari muayyan ob'yekt uchun loyiha hujjatlarida ko'rsatilishi lozim.

### **7.3 Quvurlarni korroziyaga uchraganlik holati bo'yicha brakka chiqarish**

7.3.1 Quvurlar quyidagi holatda kelgusida ishlatish uchun yaroqli hisoblanadi:

a) quvur korpusining tashqi diametridan uchidan kamida 200 mm uzunlikdagi og'ishlar 800 mm gacha diametrli quvurlar uchun tegishli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadigan chegara qiymatlaridan oshmaydi, 800 mm diametrli quvurlar uchun –  $\pm 2$  mm ni tashkil qiladi;

b) devor qalinligining quvur uchlari bo'yicha og'ishlari tegishli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadigan chegara qiymatlaridan oshmaydi;

c) choksiz quvurlarning ovalligi tashqi diametrini chegaraviy og'ishlardan tashqariga chiqarmaydi va diametri 426 mm yoki undan ortiq bo'lgan payvandlangan quvurlar nominal tashqi diametrning 1 % dan oshmaydi (bu holda ovallik tekshirilayotgan quvur uchining eng katta va eng kichik o'lchangan diametrlari orasidagi ayirmasining nominal diametrga nisbati sifatida aniqlanadi);

d) quvurning egriligi 1 m uzunligi uchun 1,5 mm dan, umumiy egriligi esa – quvur uzunligining 0,2 % dan oshmaydi;

e) har qanday o'lchamli quvur tanasida qatlamlarga bo'linish kuzatilmaydi;

f) quvur yuzasidagi tirnalgan, chizilgan va g'ajilgan joylarning chuqurligi 0,2 mm dan oshmaydi; quvur tanasida ezilgan joylar mavjud emas;

7.3.2 Nuqson xususiyatlariga qarab, u yoki bu turdagi quvurlarni 7.5 jadvalda ko'rsatilgan nuqson o'lchamlarini hisobga olgan (bog'lagan) holda ta'mirlash kerak.

7.5 jadval – Brakka chiqarishda ta'mirlanishi lozim bo'lgan yakka nuqsonli quvurlar o'lchamlarini hisobga olish (bog'lash)

Nuqsonning nisbiy chuqurligi, $(h/\delta)^*$	Nuqsonning hosil qiluvchi chiziq bo'ylab uzunligi, $\delta$ , mm	Nuqsonning eni, $D^{**}$ , mm	Nuqson ta'mirlash uchun yaroqliligi
0,20 – 0,30	14 - 28	17 mm – 0,7 D	Silliqlashni qo'llagan holda ta'mirlash lozim
0,30 -0,35	10 - 20	25 mm – 0,7 D	G'altakni almashtirgan holda ta'mirlash lozim
0,35 – 0,40	8 - 16	33 mm – 0,6 D	
0,40 – 0,45	7 - 14	40 mm – 0,6 D	
0,45 -0,50	6 – 12	60 mm – 0,6 D	
0,50 – 0,55	5 - 10	70 mm – 0,5 D	G'altakni almashtirgan holda ta'mirlash lozim
0,55 – 0,65	4 - 8	80 mm – 0,5 D	
0,65 va undan ortiq	Nuqsonning uzunligi va kengligidan qat'i nazar		Yamoqni payvandlash va yangi quvurning g'altagini ulagan holda ta'mirlash lozim

\*h – nuqsonning chuqurligi, mm;

$\delta$  – quvur devorining qalinligi, mm;

\*\* D – quvurning tashqi diametri, mm.

7.3.3 Shikastlangan joylar metall yaltirashigacha korroziyaning zangidan tozalanishi va atrofi bo'ylab moy bo'yoq bilan belgilab chiqilishi kerak. Texnologik ob'yektlarning ishlash qobiliyatini baholash bo'yicha ishchi guruhning qarori natijalari quvurning shikastlangan joylarida quyidagi belgilar yordamida moy bo'yoq bilan belgilanishi lozim:

- a) ST – silliqlab ta'mirlash;
- b) PT – payvand bilan ta'mirlash;
- c) G'A – g'altakni almashtirish;
- d) YaP – yamoq payvandlash;
- e) PKM – polimer kompozitsion muftalar bilan ta'mirlash;
- f) MM – metall muftalar.

7.3.4 Quyidagi holatlarda quvurlar ta'mirlanishi mumkin:

- a) quvurlar yuzasidagi chiziqlar, tirnalishlar va g'ajilgan joylar chuqurligi devor qalinligining 5 % dan ortiq bo'lmaganda;
- b) quvurlarning ezilgan joylari chuqurligi uning tashqi diametrining 3,5 % dan chuqur bo'lmaganda;
- c) faskalar chuqurchalari va g'ajilgan joylari 5 mm dan ortiq bo'lmaganda;
- d) quvurlar uchlaridagi mavjud qatlamlarga ajralishlar kesib tashlash yo'li bilan yo'q qilinishi mumkin.

Izoh - Quvurlarni ta'mirlash ishlari [3] talablariga muvofiq amalga oshiriladi. O'tkazilgan ta'mirlash ishlari va quvur kelgusida ishlatish uchun yaroqliligi haqidagi xulosa belgilangan shakldagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

7.3.5 Agar quvurlar 7.3.1 va 7.3.4 bandlar talablariga javob bermasa, ular quvuro'tkaz-gichlarni qurish uchun yaroqsiz hisoblanadi.

7.3.6 Er ostidagi po'lat gaz quvurlarining himoya qoplamalari holatini baholash ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan ikki bosqichda amalga oshirilishi lozim.

Birinchi bosqich himoya qoplamasining shikastlanishlari sonini asbob usulida, tuproqni ochmasdan, АНПИ, ВТР, ТПК va boshqa zamonaviy asboblardan foydalangan holda aniqlashdan iborat.

Gaz quvurining har bir 100 metrli kesimida aniqlangan himoya qoplamasi shikastlanishlari joylarining soniga qarab, ushbu Yo'riqnomaga B ilovasining B.4 jadvaliga muvofiq, himoya qoplamasining holatini ballarda baholash amalga oshiriladi.

Butun po'lat gaz quvurining himoya qoplamasi holatini baholash ushbu Yo'riqnomaga B ilovasining B.5 jadvaliga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Po'lat gaz quvurining himoya qoplamasi holatini baholash gaz quvurining 100 metrli qismlari uchun olingan hisob-kitoblarning arifmetik o'rtacha qiymati sifatida aniqlanadi:

$$a = \frac{a_1 + a_2 + a_3 \dots + a_n}{n}, \quad (2)$$

bunda:  $a_1, a_2, \dots, a_n$  – quvurning har bir 100 metrli uchastkasi bo'yicha baholash, ballar hisobida;

π - 100 metrli uchastkalar soni. Natija ushbu Yo'riqnomaga B ilovasining B.5 jadvali 3-ustuniga kiritib qo'yiladi.

Ikkinchi bosqichda po'lat gaz quvurlari himoya qoplamasining holati vizual ravishda va asboblar yordamida tekshiriladi, va buning uchun tekshirilayotgan gaz quvurining har 500 metrda, asbob usulida tekshirishda aniqlangan himoya qoplamasining eng katta shikastlanishi joyida uzunligi 1,5-2 metrli kamida bir nazorat shurfi ochilishi lozim.

Agar shurf orqali tekshirishda himoya qoplamasining holati umuman olganda yaxshi, faqat alohida mayda shikastlanishlar (teshilgan, kesilib ketgan joylar) mavjud, va ular bartaraf etilgandan keyin qoplamaning himoyalovchi xususiyatlari tiklanadigan bo'lsa, po'lat gaz quvuri himoya qoplamasining baholanishini 1 ballga ko'tarish kerak.

Agar himoya qoplamasining mo'rtlik, to'kiluvchanlik, qoplamaning adgeziyasi yo'qligi kabi nuqsonlari aniqlansa, u holda himoya qoplama holatining baholanishi bir ballga kamaytirilishi lozim. Po'lat gaz quvurlarining bunday nuqsonlari bor bo'lgan uchastkalarini qaytadan himoya qoplama bilan qoplash kerak bo'ladi.

Shurflar orqali tekshirish natijalarini hisobga olgan holda ballardagi baho (A) ushbu Yo'riqnomaga B ilovasining B.5 jadvali 4-ustuniga qo'yiladi.

7.3.7 Payvand choklari sifatini tekshirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: har bir nuqsonli chokning ikki

tomonida ularning ustida gaz quvuri yotqizilgan chuqurlikning kamida 0,7 qismidagi chuqurlikda quduqlar burg'ilash yo'li bilan bittadan tutash chok tekshiriladi va ГИВ "Вариотек" turidagi yuqori sezuvchan gaz indikatorlari va boshqa zamonaviy uskunalar yordamida gaz bilan gazlanganligi tekshiriladi;

quduqning gaz bilan gazlanganligi aniqlangan holda, bu choklarni sovunli suv yordamida tekshirish lozim;

agar ko'rsatilgan quvurlarda gaz bilan gazlanganlik aniqlanmagan bo'lsa, choklar yaroqli deb e'tirof etiladi.

Agar tekshirilgan choklarning 50 % va undan ortig'i nuqsonli ekanligi aniqlangan bo'lsa, u holda bir ballga teng baho qo'yiladi (gaz quvurining texnik holatini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha tekshiruv o'tkazish shart emas) va gaz quvuri qaytadan yotqizish uchun tayinlanadi.

Payvandlangan birikishlar sifatining ball hisobidagi bahosi ushbu Yo'riqnomaga B ilovaning B.6 jadvalida keltirilgan.

Payvandlangan birikishlar va gaz quvurining germetikligi baholanishi ushbu Yo'riqnomaga B ilovaning B.7 jadvalida keltirilgan.

Payvand choklarini tekshirish ishlari akkreditatsiyadan o'tkazilgan mustaqil putur yetkazmaydigan nazorat laboratoriyasi mavjud va O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining maxsus ruxsatnomasiga ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

## **7.4 Ezilgan va (yoki) gorfli quvurlarni brakka chiqarish**

7.4.1 Hujjatlarni o'rganish va nuqsonli uchastkani tekshirish natijalari asosida komissiya nuqson turini aniqlaydi: ezilgan joy yoki gofr.

7.4.2 Quyidagi sharoitlarda gaz quvurining ezilgan joylari va gofrlari mavjud bo'lgan uchastkalari (nuqsonning geometrik o'lchamlaridan qat'i nazar) kesib tashlanishi lozim:

- ezilgan joy yoki gofr KMK 2.05.06 bo'yicha B toifadagi gaz quvurining uchastkasida joylashgan;

- ezilgan joy yoki gofr birlashtiruvchi detalda (troynik, shoxobcha, o'tkich, sferasimon tubda) joylashgan, egrilik radiusi  $R \geq 40D$  bo'lgan sovuq egishning egri qistirmalari bundan mustasno;

- ezilgan joy yoki gofr halqa bo'ylab yoki bo'ylama payvand chokining zonasida yoxud payvand choklarining termik ta'siri zonasida joylashgan;

- ezilgan yoki gofr maydonida kelib chiqishi har qanday bo'lgan (yoriqlar, tirnalgan, g'ajilgan joylar, devorlari korroziyadan yoki boshqa sabablarga ko'ra ingichkalashgan) quvurlar devorlarining nuqsonlari aniqlangan. Shu bilan birga, putur yetkazmaydigan nazoratdan foydalangan holda, ezilgan joy yoki gofr zonasida quvur devorining nuqsonlari nafaqat tashqi, balki ichki yuzasida ham quvur devori nuqsonlari majud emasligiga ishonch hosil qilish lozim;

- ezilgan joy yoki gofrning chetlari quvurning asosiy yuzasi bilan ravon tutashmaydi (tutashish chegaralarida yuzaning siniqlari kuzatiladi).

7.4.3 Nuqsonning quyidagi parametrlari yo'l qo'yiladigan qiymatlarga muvofiqligi yuzasidan tekshirilishi lozim:

- qoldiq bo'ylama egilish deformatsiyalari;
- gazning ichki bosimi ta'sirida bo'ylama egilish deformatsiyalarining orttirmalari;
- qoldiq aylanma egilish deformatsiyalari;
- gazning ichki bosimi ta'sirida aylanma egilish deformatsiyalarining orttirmalari;
- nuqsonning solishtirma chuqurligi.

7.4.4 7.2 bandining ta'rifiga mos kelmaydigan ezilgan joylar va gofrlar uchun, nazorat qilinadigan parametrlar qiymatlari darajasiga qarab, qarorlarni qabul qilishning quyidagi variantlari nazarda tutilgan:

**OBPR** - gaz quvuri qismini ta'mirlamasdan avvalgi rejimda ishlatishni davom ettirish. Mavjud parametrlarga ega bo'lgan nuqson quvur mustahkamligi nuqtai nazaridan xavfli hisoblanmaydi, himoya qoplamasi buzilmagan va ishlatish uchun yaroqli ahvolda;

**OSPR** - gaz quvuri qismini ta'mirlagan holda, avvalgi rejimda ishlatishni davom ettirish; bunday vaziyatda ta'mirlash ishlari quvur shaklini tiklash ([4] ga muvofiq polimer kompozitsion

materiallar yordamida) va quvurni nuqson joyida qayta himoya qoplamasi bilan qoplashdan iborat bo'ladi;

**UPP** – navbatdagi rejali ta'mirlash vaqti yetib kelganda dastlab gaz haydashni to'xtatib, nuqson mavjud bo'lgan zonadagi quvur qismini kesib olib tashlash va o'rniga g'altakni sifatli payvandlash shart;

**UVP** – nuqson zonasidagi quvur qismini zudlik bilan kesib olib tashlash lozim yoki, agarda gaz haydashni to'xtatishning iloji bo'lmasa, quvuro'tkazgichdagi bosimni xavfsiz darajagacha tushirish quvurning nuqsonli qismini kesib tashlash va g'altak payvandlashni gaz quvurini reja bo'yicha to'xtatish vaqtigacha kechiktirib turish, so'ng [4] da ko'rsatilgan texnologiya bo'yicha vaqtincha ta'mirlashni o'tkazish kerak.

7.4.5 Quvurning nuqsonli uchastkasi bo'yicha qaror (OBPR, OSPR, UPP, UVP) barcha tekshiriladigan parametrlar orasidan ruxsat etilgan qiymatlarga nisbatan eng katta qiymatga ega bo'lgan parametr bo'yicha beriladi, ya'ni barcha tavsiya etilgan yechimlarning eng qat'iyi qabul qilinadi.

7.4.6 Gaz quvurining o'qi bo'ylab kesiladigan g'altakning minimal o'lchamlari ezilgan joy yoki gofr uzunligiga va nuqsonning har bir tomonidagi quvurning yarim diametriga teng deb hisoblanadi.

7.4.7 Gaz quvurlarining ta'mirlangan uchastkalarini qabul qilish [4] bo'yicha amalga oshiriladi.

## **7.5 Gaz quvurining texnik holatini umumiy baholash**

7.5.1 Gaz quvurining texnik holatini umumiy baholash ball tizimida, ushbu Yo'riqnomaning B ilovasidagi jadvallarga muvofiq chiqarilgan har bir ko'rsatkich bo'yicha baholarni qo'shish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Umumiy hisobda 10 ball va undan past baho olgan gaz quvurlari almashtirilishi shart.

Umumiy hisobda 10 balldan yuqori baho olgan gaz quvurlari ballar oshib borishi tartibida ta'mirlashga tayinlanadi.

7.5.2 Dalolatnomani rasmiylashtirish – ushbu Yo'riqnomaga C ilovasi bo'yicha amalga oshiriladi.

7.5.3 C ilovasi bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtirilgandan keyin qat'iy xulosa chiqariladi.

## **8 Ishlatilgan quvurlardan foydalangan holda gaz quvurlarini ta'mirlash**

8.1 Gaz quvurining texnik holatini kompleks baholash natijalari bo'yicha uni ta'mirlashga chiqarish yuzasidan qaror qabul qilinadi. Kompleks baholash ma'lumotlari tasdiqlanganidan keyin, kapital ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi.

8.2 Kapital ta'mirlashni amalga oshirishda quvurlar sifatini baholash ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

- 1-bosqich – quvurlarni transheyada qoldiriladigan va transheyadan chiqarilib, demontaj qilinishi lozim bo'lganlarga bo'lish.


Kelgusida ishlatish uchun gaz quvurida qodiriladigan, shu jumladan gaz quvuridan kesib chiqarilmasdan ta'mirlanadigan gaz quvurlari A1 toifasiga qiradi (8.1 rasm).

- 2-bosqich – transheyadan chiqarilgan quvurlarni quyidagilarga bo'lish:

- ta'mirlanayotgan uchastka doirasida ta'mirlangan va ta'mirlanmagan – A2 toifasiga qiradi;

- qayta ishlatish uchun tekshirilishi lozim bo'lgan – A3 toifasiga qiradi;

- qayta ishlatish uchun yaroqli bo'lgan – B toifasiga kiradi;



8.1-rasm – Foydalanishda bo'lgan quvurlarni ishlatgan holda, gaz quvurlarini kapital ta'mirlashni o'tkazishda quvurlar harakatlanishi sxemasi


8.3 Avval ishlatilgan va zavod sharoitlarida ta'mirlangan quvurlarni qayta ishlatish zavodga kelib tushishdan oldin demontaj jarayonida quvurlarning ta'mirlashga yaroqliligini ta'minlash va bevosita zavodda tekshirish, tiklash va tekshiruvdan o'tkazish jarayonlarini tashkil etish, shuningdek, uni qayta ishlatish uchun avval ishlatilgan quvur haqida zarur va yetarli miqdordagi ma'lumot olish kabi tegishli vazifalarni hal qilish bilan bog'liq.

8.4 Quvurlarni nazorat qilish jarayoni nuqsonli quvurlarni yangilariga almashtirishni nazarda tutadi. Uni amalga oshirish shart-sharoitlariga qarab, ikkita variant mavjud:

- transheya supachasida (bermasida): cho'zilgan uchastka uchida alohida quvurlarni demontaj qilish va cheklangan uzunlikdagi uchastka oxiridan alohida quvurlarni demontaj qilishni o'z ichiga olgan;

- transheyada: tarmoq oxiridan uzoq masofadagi dastlabki kesishni bajarish, cho'zilgan uchastka uchida alohida quvurlar va quvur qismlarini demontaj qilish va demontaj qilingan quvurlar o'rniga yangi quvurlarni montaj qilishni ta'minlash va cho'zilgan uchastkalarni demontaj qilish va transheya supachasiga (berma) ko'tarishni o'z ichiga olgan.

Ikkala variantlar o'zaro bog'langan (8.2 rasm).



8.2 rasm – Demontaj variantlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi

8.5 Foydalanishda bo‘lgan quvurlar bilan olib boriladigan ishlar quyidagilardan iborat:

1) quvurlarni ko‘rikdan o‘tkazishning 1-bosqichi quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

- quvurlarni dastlabki tozalash;
- quvurlarni ko‘rib chiqish (tekshirish);
- quvurlarning ichki yuzasiga markirovka qo‘yish;
- quvurlarni dastlabki tekshirib, ko‘rib chiqish;
- hujjatlarni, shu jumladan quvurlar nuqsonlari qaydnomasini, kesib olib qo‘yilgan quvurlarni brakka chiqarish dalolatnomalarini, avvalroq berilgan quvurlar sifati haqidagi hujjatlarni (mavjud bo‘lsa) tahlil qilish;

- quvurlarni identifikatsiya qilish;

2) quvurlarni ko‘rikdan o‘tkazishning 2-bosqichi quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

- quvurlar sifatini baholash (nuqsonlarni baholash normalari bo'yicha);

- quvurlar metallining kimyoviy tarkibini aniqlash;
- quvurlar metallining mexanik xususiyatlarini aniqlash;
- quvurlar po'latining markasini aniqlash;
- quvurlarni tozalash;

- quvurlarni kompleks tekshiruvdan o'tkazish;

- quvurlar sifatini baholash (quvurlar va nuqsonlarning kimyoviy tarkibini, mexanik xususiyatlarini, geometrik parametrlarini baholash normalari bo'yicha);

3) quvurlarni ta'mirlash va ta'mir sifatini nazorat qilish quyidagilarni o'ziga kiritadi:

- quvurlarni ta'mirlash (zarur holatda);
- qirralarini tayyorlash;
- bajarilgan ta'mir sifatini nazorat qilish;
- quvurlarni xavfsiz ishlatish bo'yicha prognoz muddatini va sinov o'tkazish uchun maksimal bosimni hisob-kitob qilish;

4) quvurlarni gidravlik sinovdan o'tkazish;

5) sirtqi korroziyaga qarshi qoplamanı tatbiq etish (surtish);

6) quvurlar sifatiga oid hujjatlarni rasmiylashtirish.

8.5.1 Quvur tekshiruvlarining barcha bosqichlarini va keyingi texnologik operatsiyalarni amalga oshirishga yetarli bo'lishi uchun kiruvchi quvurning ichki va tashqi yuzasi zavod sharoitlarida tayyorgarlikdan o'tkaziladi.

8.5.2 Quvurlarni tozalash va kompleks tekshiruvdan o'tkazish ishlarining hajmini kamaytirish uchun ularni dastlabki brakka chiqarish maqsadida quvurlarni dastlabki tekshiruvdan o'tkazish jarayonida eng yirik va ko'rinadigan nuqsonlari (ezilgan joylari, gofrlar, g'ajilgan joylari va sh.k.) hamda stress-korroziya nuqsonlari aniqlanadi.

Dastlabki tekshiruvdan o'tkazish quvurlarning asosiy metalli va birikma choklarining 100 % ni ko'zdan kechirib va o'lchab nazorat qilishni, ko'chib qolgan himoya qoplamasi ostidagi quvurlar qismlarini quvur yuzasining umumiy maydonining kamida 5 % hajmida uyurma-tok yordamida nazorat qilishni, nuqsonlar va anomaliyalar aniqlangan joylarda aniqlangan nuqsonlar va anomaliyalarning umumiy sonidan 10 % hajmida magnit-kukunli nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

8.5.3 Quvurlarni tekshiruvdan o'tkazish ishlari zavodda bajariladi yoki attestatsiyadan o'tkazilgan va putur yetkazmaydigan nazorat laboratoriyasiga ega bo'lgan boshqa tashkilotda amalga oshiriladi.

8.5.4 Identifikatsiya ishlari, quvur unga berilgan sifat hujjatiga muvofiqligini aniqlash taomili sifatida, [5] ga muvofiq o'tkaziladi.

8.5.5 Quvurlarni kompleks tekshirish, avvalgi tekshiruvlar davomida aniqlanmagan quvurlar va payvandlangan birikmalarining metallidagi nuqsonlarni aniqlash, shuningdek ularning joylashuvi va geometrik parametrlarini aniqlash uchun himoya

qoplamani tatbiq etishdan oldin, quvurlar tozalangandan keyin amalga oshiriladi.

Quvurlarni kompleks tekshirish vizual va o'lchaydigan, ultratovushli, radiologik, uyurma-tokli, magnit-kukunli va kapillyarli nazorat usullarini o'z ichiga oladi. Nazoratning barcha turlari amaldagi NHga muvofiq olib boriladi.

8.5.6 Vizual va o'lchaydigan nazorat quvurning ichki va tashqi yuzalari, payvand birikmalarining 100 % hajmida o'tkaziladi.

Vizual va o'lchaydigan nazorat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- quvurlar o'lchamlarini aniqlash;
- quvurlar uchlarining ovalsimonligini aniqlash;
- nuqsonlarni (korroziya, g'ajilgan, ezilgan joylar, uchlaridagi uringan joylar, yoriqlar, plenlar, yirtilgan va dumaloqlashib qolgan joylar va sh.k.), ularning o'lchamlari va koordinatalarini aniqlash.

8.5.7 Foydalanishda bo'lgan, zavod sharoitlarida ta'mirlangan, quvurlarni baholash jarayoni quvurlar parametrlari quyidagi normalarga muvofiqligini aniqlashdan iborat:

- quvurlar nuqsonlarini baholash;
- quvurlar metalli tarkibida mavjud kimyoviy elementlar miqdorini aniqlash;
- quvurlar metallining mexanik xususiyatlarini baholash;
- quvurlarning geometrik parametrlarini baholash.

8.5.8 Sifatni baholash normalari bo'yicha qayta ishlatishga yaroqli bo'lgan quvurlar zarur hollarda quyidagi usullarda ta'mirlanadi:


- nazorat ostida silliqlash;
- payvandlash (eritib qoplash);
- payvandlash (payvandlab to'ldirish);
- g'altakni kesib chiqarish;
- ochish (kerish) moslamalari yordamida to'g'rilash.

8.5.9 Quvurlarni zavod sharoitlarida tiklashning yakunlovchi (finish) bosqichi sifatida tashqi himoya qoplamasini tatbiq etish (surtish) jarayoni hisoblanadi. Qaytadan qo'llaniladigan quvurlarga tegishli normativ hujjatlar (NH) bo'yicha tashqi himoya qoplamasi tatbiq etiladi.

8.5.10 Foydalanishda bo'lgan quvurlar zavod sharoitlarida ta'mirlangandan so'ng mustahkamlikka yoki zichlikka sinovdan o'tkazilishi kerak.

8.5.11 Zavod sharoitlarida ta'mirlangan quvurlar KMK 3.05.02 9-bob, 3-jadvalida qayd etilgan bosimlarda sinovdan o'tkazilishi kerak.

8.5.12 Foydalanishda bo'lgan va zavod sharoitlarida ta'mirlangan quvurlar sifatiga oid hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni 8.3 rasmda keltirilgan.



### 8.3 rasm – Sifat hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi

8.5.13 Quvurlarni A2 toifasiga kiritish to'g'risidagi qaror bu iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va quvurlarni tiklovchi zavod bevosita ta'mirlash ishlarini o'tkazish joyiga yaqinligiga qarab qabul qilinishi lozim.

Quvurlarni tiklash va tekshirish tartibi soddalashtirilgan sxema bo'yicha o'tkazilishi kerak.

**A ilova**  
(majburiy)

**Ta'mirlanishi lozim bo'lgan nuqsonlar qaydnomasining shakli**

**A.1 - Qaydnoma**

Ta'mirlanishi lozim bo'lgan nuqsonlarning  
(quvuro'tkazgichlar va QBD \_\_\_\_\_, uchastka \_\_\_\_\_)

\_\_\_\_-sonli \_\_\_\_\_ yildagi

**QAYDNOMASI**

Nazorat quyidagi asbobdan foydalangan holda amalga oshirildi:

T.r	Quvur- lar uzun- ligi, aslida (m)	Qalin- ligi, aslida (mm)	Nuqson xusu- siyati	Quvur turi	Guruh	Devor qalinligining aslida yemirilganligi (%)	Ta'mir- lash turi	Neft-gaz tarmog'ida yaroqliligi
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Nazoratni o'tkazdi:

\_\_\_\_\_  
(lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

\_\_\_\_\_  
(lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

## **A.2 - Quvurlar nuqsonlari qaydnomasini to'ldirish bo'yicha tavsiyalar**

A.2.1 Birinchi ustunda quvurlar va birikishlar raqamlari ko'rsatiladi. Quvurlar va QBD raqamlanishi gaz yo'nalishi o'sib boradigan va defektoskopistlarning bir guruhi tomonidan tekshirilayotgan uchastka bo'yicha yaxlit qilib olinadi. Turli defektoskopistlar guruhlari tomonidan tekshirilgan quvurlar va QBD raqamlari takrorlanishining oldini olish uchun ularni raqamlash defektoskopistlar guruhini belgilovchi harfdan boshlanadi. Birikishlar raqamlanishi ular bilan ulangan quvurlar va QBD raqamlanishiga mos bo'ladi, masalan, B10 va B11 quvurlari orasida B10/11 birikishi bo'ladi. Quvurlar va QBD raqamlanishini quvurning ichki snaryad-defektoskopi bo'yicha qabul qilish tavsiya etiladi.

A.2.2 Quvur devorining qalinligi jadvalning har bir satrida ko'rsatiladi va u nuqson aniqlangan tunuka devorining qalinligiga mos kelishi kerak.

A.2.3 Har bir satrda nuqsongacha bo'lgan masofa o'lchangan bo'ylama chokning yo'nalishi ko'rsatiladi.

A.2.4 Halqasimon chokdan nuqson chetigacha eng yaqin masofa o'lchanadi. Bo'ylama koordinata o'qining yo'nalishi gaz tashish yo'nalishiga mos bo'ladi.

A.2.5 Agar nuqson ikkita quvurda joylashgan bo'lsa, u uning ko'p qismi joylashgan quvurda ko'rsatiladi. Bu holda, halqasimon chokdan masofa manfiy bo'lishi mumkin.

A.2.6 Bo'ylama chokdan nuqsonlar o'rtasigacha bo'lgan masofa o'lchanadi. Halqasimon koordinataning o'sish yo'nalishi gaz yo'nalishi bo'ylab harakatlanayotgan o'ng vint qoidasi bo'yicha aniqlanadi.

A.2.7 Quvur nuqsonining uzunligi sifatida uning bo'ylama yo'nalishdagi o'lchami olinadi. Birikish nuqsonining uzunligi sifatida halqasimon yo'nalishdagi o'lchami olinadi.

A.2.8 "Quvurning nuqsonli qismini ruxsat etilgan ta'miri" ustunida quvurning nuqsoni mavjud yoki ushbu Yo'riqnomaga yoxud boshqa amaldagi normativlarga muvofiq nuqsonlari identifikatsiyalangan (qo'shni nuqsonlarni hisobga olmagan holda) qismida qanday ta'mirlash ishlari ruxsat etilganligi ko'rsatiladi, "Butun quvurni ruxsat etilgan ta'miri" ustunida esa quvurda aniqlangan barcha nuqsonlarni hisobga olgan holda, butun quvurni qanday ta'mirlash ishlari ruxsat etilganligi aks ettiriladi.

A.2.9 Kombinatsiyalangan nuqsonlar (masalan, ezilgan va g'ajilgan joy, yoriqli ezilgan, yoriqli korroziyaga chalingan, alohida kavaklari mavjud butkul korroziyaga chalingan joylar va sh.k.) alohida nuqsonlarining koordinatalari va parametrlari bilan, kataklarni birlashtirgan holda "Quvurning nuqsonli qismini ruxsat etilgan ta'miri" ustunida ko'rsatiladi.

## B ilova

(ma'lumot uchun)

### Quvurlar ahvolini baholash

#### B.1 jadvali – Quvur metallining ahvolini baholash

Quvur metallining holati	Baho, ballar
Ko'rib chiqilgan quvurning 50 % dan ortiq joylarida kuchli va juda kuchli korroziya mavjud	1
Ko'rib chiqilgan quvurning 50 % gacha bo'lgan joylarida kuchli va juda kuchli korroziya mavjud	2
Kuchsiz korroziya	3
Korroziya mavjud emas	5

B.2 jadvali – Himoya qoplamasi bilan himoyalanganvchi flanetslar mavjud bo'lmagan taqdirda uskunalari va turdosh kommunikatsiyalar orqali yer bilan bevosita aloqada bo'lgan gaz ta'minoti ob'ektlarida himoya tokining o'rtacha yo'qotishlari

Ob'ektlar	Himoya tokining yo'qotishlari, A
Gaz rostdash punktlari	2-4
Qozonxonalar	12-15
Gazda ishlovchi suv isitgichlari bilan jihozlangan turar-joy binolari	5

B.3 jadvali – Anodli va belgisi o'zgaruvchan zonalar mavjudligida korroziya xavfini baholash

Anodli va belgisi o'zgaruvchan zonalar mavjudligi	Baho, ballar
Gaz quvuri uzunligining 50 % dan ortig'i	1
Gaz quvuri uzunligining 50 % gacha	2
Mavjud emas	3

B.4 jadvali – Himoya qoplamasi holatini shikastlanishlar soniga qarab baholash

Har bir 100 metrli uchastkada tuproqni ochmasdan gaz quvurini tekshirishda asboblarda aniqlangan himoya qoplamasi shikastlangan joylarining soni	Baho, ballar
0-1	4
2-3	3
4-8	2
8 dan ortiq	1

B.5 jadvali – Butun gaz quvurining himoya qoplamasi holatini baholash

Gaz quvurining 100 metrli uchastkasi raqami	Himoya qoplamasi holatini baholash, ballar		
	Gaz quvurining 100 metrli uchastkasini asbob usulida tekshirish natijalari bo'yicha	Butun gaz quvurini asbob usulida tekshirish natijalari bo'yicha	Shurflar orqali ko'rib chiqish natijalarini hisobga olgan holda umumiy baholash
1	2	3	4
1	1		
2	2		
3	3	a	A
4	4		
5	5		
.....p	.....a		
	p		

1-графада ҳар бир текширилган 100 метрлик участка учун 3-жадвал бўйича аниқланган баҳолар қўйилади.

### B.6 jadvali – Payvandlangan birikishlar sifatini baholash

Birikishlar sifati	Baholar, ballar
Nuqsonli (sovunli suv bilan tekshirish natijasida), 50 % va undan ortiq	1
50 % dan kam	2
Yaroqli	3

### B.7 jadvali – Gaz quvurlarining germetikligini baholash

Tekshirilayotgan gaz quvurining har bir kilometrda (shu jumladan, yakuniy tekshiruvda) ishlatish boshlanganidan buyon ro'y bergan korroziya shikastlanishi yoki payvand choklarining shikastlanishi bilan bog'liq gaz sizib chiqishi holatlari	Baho, ballar
2 dan ortiq	1
2	2
1	3
0	5

Izoh - uzunligi 1 km dan kichik gaz quvurining germetikligini baholashda ballarda baholash bir kilometrlik gaz quvuri uchun bo'lgani kabi qo'yiladi.

## **C ilova**

(majburiy)

### **Gaz quvurining texnik holatini tekshirish dalolatnomasining shakli**

**TASDIQLAYMAN**

\_\_\_\_\_  
(lavozimi, F.I.O.)

\_\_\_\_\_  
(imzo, sana)

### **Gaz quvuri va QBDning texnik holatini tekshirish DALOLATNOMASI**

\_\_\_\_\_  
(tekshiruv o'tkazgan bo'linmaning nomi)

Shahar (aholi punkti va sh.k.) \_\_\_\_\_

1. Gaz quvurining manzili \_\_\_\_\_

2. Gaz quvurining tavsifi:

bosim: yuqori, o'rta, past (tagiga chizing):

uzunligi, diametri, devor qalinligi: \_\_\_\_\_

Quvurlar va quvurlar materiali bo'yicha NH \_\_\_\_\_

Qurilgan yili \_\_\_\_\_

Yotqizilishining maksimal va minimal chuqurligi

(quvurning tepa qismidan yer yuzasigacha) \_\_\_\_\_

Himoya qoplamaning turi - normal, kuchaytirilgan, juda kuchaytirilgan (tagiga chizing), doka, qop-qanorli mato, brizol, gidroizol, shishali mato (tagiga chizing) bilan mustahkam-

langan.

Ishlatish davrida aniqlangan amaldagi norma va qoidalardan og'ishlar

Gaz quvurining elektr himoya vositalari mavjudligi (elektr himoya vositasining turini va u ishga tushirilgan yilni, barcha himoya potentsiallarini ko'rsating)

### 3. Germetikligini tekshirish:

Gaz quvuri ishga tushirilgan vaqtdan boshlab, payvandlangan birikmalar sifati yoki teshib o'tgan korroziya shikastlari bilan bog'liq bo'lgan gaz sizib chiqishi holatlarining aniqlangan soni (ushbu tekshiruvni ham hisobga olib) – jami \_\_\_\_

Ushbu Yo'riqnomaga B ilovasining B.7 jadvaliga muvofiq o'tkazilgan gaz quvurining germetikligini baholash, ball hisobida \_\_\_\_\_

### 4. Himoya qoplamasining holatini tekshirish:

Asbob usulida aniqlangan himoya qoplamasi shikastlangan joylarining soni,

jami \_\_\_\_\_

Ushbu Yo'riqnomaga B ilovasining B.4 jadvaliga muvofiq, shikastlanishlar soniga qarab o'tkazilgan, himoya qoplamasining holatini baholash,

\_\_\_\_\_ballar

Himoya qoplamasining holati vizual tarzda (ko'zdan kechirib) tekshirilgan shurflar soni \_\_\_\_\_

Shurflar orqali tekshirish bo'yicha himoya qoplamasini tekshirish natijalari:

Himoya qoplamasining qalinligi \_\_\_\_\_

mustahkamlovchi qoplamaning holati \_\_\_\_\_

Himoya qoplamasining yuzasi: silliq, burushgan, g'adir-budur, ikki yonidan ezilgan, tagidan ezilgan (tagiga chizing)

Shikastlarning xususiyatlari: teshilgan, kesilgan joylar, tuproq bosimi ostida teshilgan joylar, mo'rt, qatlamlarga ajralgan, zarbadan to'kiladigan joylar, ishlatish davrida ro'y bergan turli mexanik shikastlanishlar \_\_\_\_\_

Ushbu Yo'riqnomaga B ilovasining B.4 jadvaliga muvofiq, shurflar orqali tekshiruvlarni hisobga olgan holda, himoya qoplamasining holatini yakuniy baholash – \_\_\_\_\_ballar.

5. Quvur metallining holatini tekshirish:

Quvur metallining holati tekshirilgan shurflar soni \_\_\_\_\_

Shu jumladan korroziya aniqlangan shurflar soni:

kuchli \_\_\_\_\_

juda kuchli \_\_\_\_\_

kuchsiz \_\_\_\_\_

Izoh - Korroziya turi ushbu Yo'riqnomaning 6.5.2 bandidagi 1-jadvalga muvofiq aniqlanadi.

Korroziyaning taxminiy sabablari: \_\_\_\_\_

Ushbu Yo'riqnomaga B ilovasining B.1 jadvaliga muvofiq quvur metallining holatini baholash\_\_\_\_\_

6. Payvandlangan birikishlar sifatini tekshirish:

Ishga tushirilgandan boshlab payvandlangan birikishlar bilan bog'liq aniqlangan gaz sizib chiqishi holatlari\_\_\_\_\_

Qo'shimcha tekshirilgan birikishlar soni ushbu Yo'riqnomaning 7.3.7 bandining talablariga javob berishi lozim\_\_\_\_\_

Shu jumladan nuqsonli deb e'tirof etilgan\_\_\_\_\_

Ushbu Yo'riqnomaga B ilovaning B.6 jadvaliga muvofiq o'tkazilgan gaz quvurining payvandlangan birikishlari sifatini baholash\_\_\_\_\_

Izoh - quvurni ishlatish jarayonida gaz sizib chiqishi kuzatilgan holatdagina payvandlangan birikishlarni tekshirish lozim.

7. Korroziyaga chalinish xavfini baholash:

Himoya qilish xizmatining dalolatnomasi bo'yicha korroziya faolligi \_\_\_\_\_ tuproqning turi\_\_\_\_\_

Yer osti (sizot) suvlarining sathi\_\_\_\_\_ tuproq ifloslanishi\_\_\_\_\_

Daydi toklarni o'lchash natijalari.

Elektr potentsiallarining kattaligi: maks.\_\_\_\_\_

min.\_\_\_\_\_

Anodli va belgisi o'zgaruvchan zonalarning gaz quvurining umumiy uzunligiga nisbatan foiz hisobidagi uzunligi, metr\_\_\_\_\_

Ushbu Yo'riqnomaga B ilovaning B.3 jadvaliga muvofiq korroziyaga chalinish xavfini baholash\_\_\_\_\_

